

NOTA YOZUVI TIZIMI



Ibroximjonova Gavxar Amanbaevna – Xalqaro Nordik universiteti musiqa ta’limi kafedrasi dotsent v.b.

1-§. Nota yo‘li. Nota belgisi. Kalitlar.



Ko‘p asrlar mobaynida musiqa asarlarini qog‘ozga aniq tushurish uchun qulay ko‘rgazmali yozuv tizimni topish harakatlari qilingan edi. Musiqiy matnni qog‘ozga tushirishdagi murakkablik shunda bo‘lganki, tovushning balandlik va cho‘zim xususiyatlarini bitta belgi bilan ifodalash zarur edi. Bunday belgi **nota**¹ degan nom oldi. Nota yozuvning ilk turi qadim Yunoniston san’atida paydo bo‘lgan harfiy notatsiyadir (notalar tizimi).

13

Nevmalar



aks



IX asrda g‘arbiy Evropa musiqa nazariyotida tovushlarning nisbiy balandligini va kuy xarakati yo‘nalishini **nevma** belgilari yordamida grafik etish urinishlar qilingan edi. Biroq ular tovush balandligi o‘zgarishini taxminan ko‘rsata olar edi. Nevma yozushi faqatgina vokal musiqa asarlarini qog‘ozga tushirish uchun qo‘llanilardi.

O‘rta asrlar davrida ilm, yozuv, bilimlar “madaniyat o‘chog‘i” deb hisoblangan monastirlarda to‘plangan edi. X asr ohirida Korbi nomli fransuz monastir rohiblari tomonidan musiqiy yozuvga nevmalarni kesib o‘tadigan gorizontal qizil chiziq kiritildi. Uni ustiga yozilgan nevmalar kichik oktavaning fa tovushi deb xisoblanar edi. Keyinchalik unga yana bitta – sariq rangli chizik qo‘sildi va qizil chiziqdan yuqoriroq joylashib, birinchi oktavaning do tovushini bildirardi.


Musiqa nazariyotining haqiqiy islohotchisi, zamonaviy nota yozuvning asoschisi Gvido d’Aretstso (XI asr) geksaxordlar tizimi, pog‘onalarni nomlashdan tashqari, to‘rt chiziqli nota yo‘lini ham barqaror qildi. Kelgusida nota yo‘lining

¹ Nota - (lotincha *nota*) – yozuv belgisi, belgi. Tovushning grafik ishorasi.

chiziqlarini ko‘paytirish va kamaytirish kabi xarakatlar qilindi-yu, ammo bu urinishlar muvaffaqiyatga uchramadi. Nihoyat, XIV asrda besh chiziqli nota yo‘li barpo etilib, xozirgacha eng qulay nota yo‘li sifatida qo‘llanilmoqda. Bunga sabab – beshta chiziqqa (qo‘shimcha chiziklarsiz) ashulachi ovozining barcha o‘rtalig‘i tovushlarini (tesstiura²) yozib joylashtirish mumkinligi hamda nota o‘qishda mo‘ljal qilib olingan o‘rtalig‘i chiziqning tez va osonlik bilan topilishidir.

Nota yo‘li deb nota, alteratsiya belgilari, pauzalar joylashadigan beshta gorizontal parallel chiziqlar tizimiga deyidadi. Chiziqlar pastdan yuqoriga qarab sanaladi.


14



Odatda nota yo‘li boshida beshta chiziqni birlashtiradigan vertikal **boshlang‘ich chiziq** qo‘yiladi. Notalar nota yo‘lining chiziqlari ustiga va ular oralig‘iga yoziladi. Asosiy chiziqlardan tashqari qisqa **qo‘shimcha chiziqlar** ham ishlatalishi mumkin. Ular nota yo‘lining tepasidan yozilsa, pastdan yuqoriga tomon, yoki nota yo‘lining pastidan yozilsa, yuqoridan pastga tomon sanaladi.

Boshlang‘ich chiziqning turlari. Ko‘p xollarda musiqiy asar matni bir vaqtning o‘zida ikkita, uchta va undan ortiq nota yo‘lida bayon etiladi. Shunda, barcha nota yo‘llari umumiy boshlang‘ich chiziq bilan birlashtiriladi. Unga qo‘shilib yana **akkolada**³ deyildigan kavs ham yoziladi. Фигурали акколада fortepiano, organ, arfa, bayan uchun yozilgan asarlar notalarida, to‘g‘ri akkolada ansambl, xor yoki orkestr uchun yozilgan asarlar notalarida qo‘llaniladi.

15



Alteratsiya belgilari nota yo‘lida qo‘llanishi bo‘yicha ikki xilga ajratiladi. **Tasodifiy alteratsiya belgilari** nota yoniga o‘ng tomonidan (17-, 18- misollarga qarang), **kalit yonidagi alteratsiya belgilari** asarning har qatoriga kalitdan so‘ng qo‘yiladi (16-, 23- misollara qarang)

² Tessitura – (italiyancha *tessitura*) – mato. Ovozdagi ustunlik kiluvchi registr.

³ Akkolada – (frfntsuzcha *accolade*) – quchoqamoq, qavs bilan birlashtirmoq.

Bir ovozning tessiturasidagi tovushlarni notalashtirish jarayonida yozuv qiyinchiliklarisiz bitta nota yo‘lida yozilishi mumkin edi. Boshqa ovozning tessiturasini notaga tushurish uchun ko‘p sonli qo‘s Shimcha chiziqlardan foydalanishga majbur qilardi. Bundan tashqari, qo‘s Shimcha chiziqlarga yozilgan notalarini o‘qish jarayoni ham osonlikcha o‘tmaydi.

Ushbu masalani bartaraf etish uchun bir qator **kalitlar** ishga solindi. Kalitlardan har biri alohida bir ovoz uchun mo‘jalangan. Shunday qilib soprano, alt, tenor, bas va boshqa kalitlar vujudga keldi. Bu kalitlar **Do kalitlari** deb ataladi. Negaki, ular birinchi oktava do tovushning nota yo‘lidagi joylashuvini ko‘rsatadi. Baland ovozlar uchun kalit nota yo‘lining pastrog‘ida, past ovozlar uchun esa yuqorirog‘ida yozilib, qo‘s Shimcha chiziqlarga muhtojlikni hal qilardi. Kalitning muhim bir vazifasi bor – unga biriktirilgan tovushning notasini nota yo‘lidagi joylashuvini ko‘rsatib turishdir. (Xozirgi kunda Do kalitlaridan faqat alt bilan tenor kalitlari ayrim cholg‘u asboblari uchun qo‘llaniladi).

16 Do kalitlari tizimi



Bundan buyon, cholg‘u musikasi rivojlanishi bilan, nota yo‘li katta diapazondagi asarlar tovushkatorini o‘z ichiga sig‘dirolmay qolgach, yangi kalitlar, ya’ni **Sol** bilan **Fa kalitlari** ishlatalishi boshladи.

Skripka kaliti birinchi oktavaning sol tovush nota yo‘lidagi ikkinchi chiziqliqa, **bas kaliti** kichik oktavaning fa tovush to‘rtinchi chiziqliqa yozilishini ko‘rsatadi.

Zamonaviy nota yozuvida **skripka (Sol)** va **bas (Fa) kalitlari kalitlar tizimini** tashkil etadi. Bu tizim ikkita nota yo‘lini bitta qatorga birlashtirib, musiqiy tizimning butun tovushqatorini qamrab oladigan imkonga qodir bo‘ldi (5- misolga qarang). Skripka bilan bas kalitlari asosiy kalitlarga aylanib qoldilar. Kalitlar tizimi birligi yana shu bilan ta’kidlanadiki, birinchi oktavali C tovush notasi, musiqiy tovushqatorning markazi sifatida, nota yo‘llari o‘rtasida faraz qilinadigan chiziqdagi joylashadi. Undan qarama-qarshi tomonlarga qarab joylashgan notalar esa bir-birining kuzguli aksidir. Qiziq narsa, kalitlarning yozilishida ham ularning o‘zaro aksi ko‘rinadi.

17 kalitlarning va notalar joylashuvlarining ko‘zguli aksi

2- §. Tovush cho‘zimlari. Cho‘zimlarni uzaytiruvchi belgilar. Pauzalar

Nota tovushning belgisidir. Notaning nota yo‘lida joylashuvi (kalitning turi inobatga olingan holda) uning aniq balandigini bildiradi. Notaning grafik ko‘rinishi esa tovushning cho‘zimi haqida xabar beradi.

Notaning o‘zi oval shaklga ega. Bo‘yalmagan oval eng katta cho‘zim deb hisoblanadigan cho‘zimning belgisidir.

Unga butun cho‘zimdagi nota deyiladi –

Butun cho‘zimning teng yarimi (1/2) – **yarimtalik cho‘zimdir**. Uning notasi – chizig‘i, ya’ni shtili bor bo‘yalmagan oval:

Eslatma: shtillar notaning o‘ng tomonidan yuqoriga, chap tomonidan pastga qarab yozilishi lozim.

Yarimtalik cho‘zimning teng yarimi (1/2) yoki butun cho‘zimning choragi (1/4) –

choraktalik cho‘zimdir. Chorak notasi – shtili bor bo‘yalgan oval. Chorak cho‘zimning teng yarimi (1/2), yoki yarimtalik cho‘zimning choragi (1/4), yoki butun cho‘zimning sakkizdan bir qismi (1/8) – **sakkiztalik cho‘zim, yoki nimchorakdir**. Notasining grafik ko‘rinishi – bo‘yalgan ovalga shtil bilan bayroqcha (dumcha) qo‘shilgan:

Eslatma: bayroqchalar har doim shtilning o‘ng tomonidan yoziladi.

Sakkiztalik cho‘zimning teng yarimi (1/2), yoki chorakning to‘rtadan bir qismi (1/4), yoki yarimtalik cho‘zimning sakkizdan bir qismi (1/8), yoki butun cho‘zimning o‘n oltidan bir qismi (1/16) – **o‘n oltitalik cho‘zimdir**. Uning notasi – bo‘yalgan ovalga shtil bilan ikkita bayroqcha qo‘shilgan:

O‘n oltitalik cho‘zim, o‘z navbatida, ikkita o‘ttiz ikkitalik cho‘zimdan iboratdir. Notasi - bo‘yalgan ovalga shtil bilan uchta bayroqcha qo‘shilgan:

iboratdir. Notasi - bo‘yalgan ovalga shtil bilan uchta bayroqcha qo‘shilgan:

18 Cho‘zimlarning asosiy bo‘linishi va raqam bilan ifodalanishi jadvali.

1	butun							
2	yarimalik							
4	chorak							
8	sakkiztalik							
16	o‘n oltitalik							
		1	i	2	i	3	i	4
								i

Cho‘zimlarning asosiy bo‘linishi deganda, har qanday cho‘zimning ikkita teng qismga bo‘linishi nazarda tutiladi. Shu tariqada, butun cho‘zim ikkita yarimalik cho‘zimdan, yarimalik – ikkita chorakdan, chorak – ikkita nimchorakdan iborat va hokazo. Yoki sakkizta nimchorakning umumiyligi cho‘zimi butun cho‘zimga teng keladi; to‘tra nimchorak bitta yarimalik cho‘zimi xosil qildi. (Taqqoslang: real vaqtida 1 kun cho‘zimi 24 soatdan iborat, 1 soat cho‘zimi 60 daqiqadan iborat, 1 daqqaq 60 soniyaga teng keladi, 1 soatning cho‘zimi 3600 soniya bilan barobar).

19

Cho‘zimlar soni	Tovush cho‘zimlarining notali ishorasi				
1 ta					
2 ta					
4 ta					
8 ta					
16 ta					
32 ta					

Nota **shtillarining yozilishi** notaning nota yo‘lidagi joylashuvidan kelib chiqadi. Uchinichi (o‘rta) chiziqdagi joylashgan notaning shtili pastga ham, yuqoriga ham yozilishi mumkin. O‘rta chiziqdan pastroq joylashgan notalarning shtillari yuqoriga qarab, o‘rta chiziqdan teparoq joylashgan notalarning shtillari pastga qarab yoziladi.



Bayroqchali notalar asosan honanda ovozi partiyasida qo'llaniladi. Shunda, quyidagi shartga rioya qilish lozim: so'zning har bo'g'iniga to'g'ri keladigan nota boshqa notalardan alohida yoziladi; agar so'z bo'g'iniga bir necha bayroqchali notalar to'g'ri kelsa, ular to'g'ri chiziq – qovurg'acha bilan bir guruhga birlashtiriladi.

Nota yo'lida ikki mustaqil ovozni yozish ham mumkin. Ovozlarni ajratish uchun yuqori ovoz shtillari yuqoriga, pastki ovoz shtillari pastga qaratilgan bo'ladi (16-misolga qarang).

Cholg'u musiqa asrlarida mayda cho'zimli notalar asosan guruhlarga birlashtirilgan holda yoziladi. (17- misolga qarang). Shunisi ham borki, guruhni tashkil etadigan notalar aksariyati uchinchi chiziqdan pastroq joylashgan bo'lsa, ularning shtillari yuqoriga qaratiladi va aksincha. (18- misolga qarang).

OYMOMAJON ROM BO'LDI

Shermat Yormatov musiqlasi

Quddus Muhammadiy she'ri

Solist

Oy-mo-ma-jon rombo'l-di, rom bo'l - di, Os-mon-gum-baz
 tom bo'l-di, tom bo'l - di, Os-mon-gum-baz to - mi - ga
 lo-chin bo'lib qo'na - miz Yo-rug'yul-duz yu - zi - ga, Muh-ri-miz-ni
 Oy us - ti - ga
 qo' - ya - miz. O'z - be - kis-ton bay - ro - g'in a.....

V.Motsart. Fortepiano sonatasi A-dur,
III qism. Turkcha marsh.

Allegretto

22 a

Nota yozuvida asosiy **cho‘zimlarni uzaytiruvchi qo‘shimcha belgilar** ham tez-tez qo‘llaniladi. Bularga nota yoniga (hamisha o‘ng tomonidan) qo‘yiladigan **nuqta**, yonma-yon turgan bir xil balandlikdag‘i notalarini birlashtiruvchi **liga**⁴, nota tepasidan yoki ostidan qo‘yiladigan **fermata** kiradi.

Nuqta – tovush cho‘zimini teng yarimiga uzaytiradi:

$$\begin{aligned}
 23 \quad & \bullet = \frac{3}{2} (\bullet + \downarrow); \\
 & \downarrow = \frac{3}{4} (\downarrow + \bullet); \\
 & \downarrow = \frac{3}{8} (\downarrow + \bullet); \\
 & \bullet = \frac{3}{16} (\bullet + \downarrow)
 \end{aligned}$$


- Butun cho‘zim nuktasi bilan o‘z ichiga uchta yarimtalik cho‘zimni oladi;
- Nuqtali yarimtalik cho‘zim uchta chorakning umumiy cho‘zimiga teng bo‘ladi;

⁴ *Liga* – (eski italiyanacha *liga*) – aloqa, bog‘liqlik.

- Nuktali choraktalik cho‘zim uchta nimchorakning umumiyligi cho‘zimiga teng bo‘ladi; va hokazo.

Liga – bog‘lab turgan notalar cho‘zimlarining umumiyligi miqdoriga teng cho‘zimni hosil qiladi.

24



Masalan: butun bilan yarimtalik liga orqali qo‘shilishi natijasida uchta yarimtalikning umumiyligi miqdoriga teng cho‘zim hosil bo‘ladi; nimchorak yarimtalik bilan liga orqali qo‘shiliganda beshta nimchorakka teng cho‘zim hosil bo‘ladi.


Fermata - tovush cho‘zimini cheklanmagan vaqtga uzaytiradi. Bunday tovushning uzunligi asarning xarakteri hamda ijrochining dididan kelib chiqadi.

25



Pauza⁵ deb musiqiy asardagi bitta, ikkita yoki barcha **ovozlar yangrashining ma’lum vaqtga to‘xtalishiga** va uning belgisiga aytildi.

26



butun chozimdag'i pauza



yarimtalik pauza



choraktalik pauza



nimchorak pauzasi



on oltitalik pauza



ottiz iktalik pauza

Pauza cho‘zimlari xuddi tovush cho‘zimlaridek o‘lchanadi hamda faqat nukta yordamida uzaytiriladi.

3- §. Ko‘p ovozlilikni nota yo‘lida yozish qoidalari. Partitura

Bitta nota yo‘lida ikkita mustaqil ovoz yozish mumkin. Bunday hollarda nota tayoqchalari qarama-qarshi tomonga qaratilib har bir ovoz uchun ayrim-ayrim yoziladi. Yuqori ovoz ta‘qchalari yuqoriga, pastko ovoz tayoqchalari esa pastga qaratilgan bo‘ladi. Bu qoida ohang qanchalik baland yoki past bo‘lishidan qat’iy

⁵ Pauza – (lotincha pausa) – to‘xtalish, tugatish.

nazar ishlaydi (esda tuting: bitta nota yo‘lida bitta ovoz yozishda nota shtillari pastga yo‘naltiriladi, agar nota nota yo‘lining o‘rta chizig‘ida yoki undan yuqori bo‘lsa; agarda nota nota yo‘lining markaz chizig‘idan pastda yozilsa nota shtili yuqoriga yo‘naltirilgan bo‘ladi).

27



27 a



Ovoz yoki yakka soz va fortepiano uchun mo‘ljallangan asarlar uchta nota yo‘lida yoziladi: M.Yusupov. “Qalbi daryo”

28

The musical score consists of three staves. The top staff shows a vocal line with lyrics: "Бир юн бўлди" (Bir yun bol-di). The middle staff shows a piano accompaniment with dynamics "mf" and "mp". The bottom staff shows another piano accompaniment. The lyrics are written below the notes in a vertical column: "йи - гит - дар - нинг са - ра - си, кел - га - ни - га: о - лис - дан," followed by a repeat sign and "йи - гит - дар - нинг са - ра - си, кел - га - ни - га: о - лис - дан."

Xor, cholg‘u ansambl va orkestrga mo‘ljallangan musiqa asarlari to‘g‘ri qavs bilan birlashtirilgan uch, to‘rt va undan ko‘proq nota yo‘llarida yoziladi. Bunday nota yozish shkli partitura deyiladi.

29

d) Adagio

A.Lyadov. Ruscha mavzuga variatsiya

Partitura. Partiya. Partitura italiyancha so‘z bo‘lib taqsimlash, bo‘lish degan ma’noni bildiradi. U XVI- asrdan boshlab ko‘p ovozli musiqa asarini takt chizig‘i bilan birlashtirilgan ikkita va undan ortiq nota yo‘liga notalashtirish usuli deb hisoblanadi. Zamonaviy partitura shakli XIX- asr o‘rtalarigacha butunlay shakllanib bo‘ldi. Xor musiqasini asrlari partiturasida yuqori nota yo‘llarida ayollar ovozlari – soprano, pastrog‘ida alt, kontralto - joylashadi, pastki yo‘llarda erkaklar ovozlari – tenor, bariton, bas.

30

J.Gabrieli. Xor

Har bir ovoz uchun alohida nota yo‘li ajratiladi. Bunga partiya (lotincha qism) deyiladi.

Orkestr cholg‘u asboblari xususiyatlari bo‘yicha to‘rtta guruhgaga bo‘linadi. Bular torli-kamonli asboblар guruhi, yog‘och puflama asboblari, mis puflama asboblari, zarbli asboblар guzuhi. Orkestr partiturasи ham shunday taqsimlanib yoziladi. Partituraning yuqori nota yo‘llarida yog‘och puflama asboblар guruhi

partiyalari yoziladi. Undang so‘ng (pastga tomon) mis puflama asboblar, ketidan zarbli va torli-kamonli asboblar partiyalari beriladi. Partiturada guruqlar yana bitta to‘g‘ri kavs bilan birlashtirilib, boshqa guruqlardan ajralib turadi. Har bir guruhdagi cholg‘ularning partiyalari ularning tesstiturasi bo‘yicha, ya’ni yuqori tessiturdagi cholg‘ular teparoq, past tessiturali cholg‘ular pastroq navbat bilan yoziladi. (27- misol).

N. Rimskiy-Korsakov. *Espancha Kaprichchios, I qism*

Vivace struppitoso $\text{♩} = 126$

N. Rimskiy-Korsakov. *Espancha Kaprichchios, I qism*

Vivace struppitoso $\text{♩} = 126$

Flauto
Piccolo
2 Flauti
2 Oboi
2 Clarinetti in A
2 Fagotti
4 Corni in F
2 Trombe in A
3 Tromboni e Tuba
Timpani in E, A
Triangolo
Tamburino
Piatti
Cassa

Violini I
Violini II
Viole
Violoncelli
Kontrabassi

2- §. Dinamik belgilar. Nota yozuvini qisqartirish belgilari

Musiqada uning eshitilish kuchi turli darajada namoyon bo‘ladi. Bu tovush kuchi (qattiqlik darjasasi) dinamik belgilar bilan ko‘rsatiladi. Dinamik belgilar katta

ifoda kuchiga ega. Masalan, kuyning ko‘tariluvchi harakati eshitilish kuchini oshirib boradi, quyilashtiruvchi harakat esa, eshitilishning pasayishiga olib keladi.

Musiqa asrlarining mazmuni dinamikaning umumiylari darajasini ifodalaydi, misol uchun “alla”ning ijrosi piano eshitilish kuchini, tantanali marsh esa forte eshitilish kuchini talab etadi. Dinamik belgilarning eshitilish tuslari xilma-xil bo‘lib, musiqaning eshitilish kuchini aniq ifodalash mumkin emas, albatta. Lekin ijrochilarga ushbu belgilardan mohirlik bilan foydalanib, rang-barang obrazlarni yaratish imkonin beradi.

Musiqada keng qo‘llaniladigan dinamik belgilar:

32

DINAMIK BELGILAR	
<i>P</i>	(piano) - kuchsiz, ohista.
<i>PP</i>	(pianissimo) - juda kuchsiz.
<i>mp</i>	(metso piano) - kuchsizroq
<i>f</i>	(forte) - kuchli, qattiq.
<i>ff</i>	(fortissimo) - juda kuchli.
<i>mf</i>	(metse forte) - kuchliroq.
	(kreshchendo) - tovushni kuchaytirish.
	(diminuendo) - tovushni kuchsizlantirish.

Nota yozushi qoidalariiga muvofiq tariqada dinamik belgilar odatda nota yo‘li ostida yoziladi:

33

6. Sekin

A.Xachaturyan. «Boshoq to‘lisha boshladı»

The musical score consists of four staves of music in common time (C), with a key signature of one flat (F#). The first staff begins with a dynamic marking 'mp'. The second staff begins with 'mf'. The third staff ends with a fermata. The fourth staff begins with 'f'.

11. Moderato

D.Skarlatti. Ariya




Nota yozuvini soddalashtirish va qisqartirish uchun bir necha maxsus belgilar qo'llaniladi.

- 1) Musiqa asarning ma'lum qismida qo'shimcha chiziklarni kamaytirish maqsadida bir oktava yukori yoki pastga ko'chirish belgisi qo'yiladi.



- 2) Repriza⁶ – qaytarish belgisi – asarning ma'lum bir qismini yoki uning o'zini boshdan ohirigacha qayta ijro etish uchun qo'yiladi:



⁶ Repiza – (frantsuzcha reprise) – qaytadan boshlamoq.

O‘zbek xalq qo‘sishiga “O‘zgancha”

The musical score consists of two staves of music for voice and piano. The top staff is in 2/4 time, treble clef, and the bottom staff is in common time, bass clef. The lyrics are as follows:

En di sen-dek, jo - no, jo nonqay - da - dir, yor ey!

Ko' rib gul yu - zing - ni bog' -da ban - da - dir.

- 3) Volta— asardagi qaytariladigan qismning ohirida o‘zgaradigan taktlari ustiga qo‘iladigan kvadrat kavsdir. Birinchi voltadagi taktlar – asar parchasi birinchi marta ijro etilishi uchun, ikkinchi voltadagi taktlar – asar parchasining takroriy ijrosi uchun ko‘rsatiladi.

A.Mansurov. "Quyosh bilan suhbат"

Musical score for 'Na Na Na' featuring three staves of music. The first staff shows a vocal line with 'Na na na na na na na na' lyrics. The second staff, labeled '1.', continues the melody. The third staff, labeled '2.', adds a rhythmic pattern to the 'na' lyrics. The score concludes with a double bar line and a section sign.

- 4) Da capo al Fine – ya’ni «boshdan to Oxiri (Fine) so‘zigacha» - uch kismli shaklda yozilgan asarda ikkinchi qismidan co‘ng, birinchi kismni notama-nota takrorlashni talab qiladi; shunda, uchinchi qismning nota matni yozilmaydi.

Andantino

Л. Делиб. Ручай

№ 12
Ориг. а-моль

Fine

D.C. al Fine

5) Segno – (senio) takt ustiga kuyiladigan belgi – asarda qaytarish boshlanadigan yoki tamom bo‘ladigan joyini ko‘rstuvchi belgidir **§**

CHUMOLI

R.Ishogov she’ri
Sho‘x, quvnoq

Alisher Rasulov musiqasi


Chu-mo-li chu-mo-li Char - chash ni - ma bil - may - di. Chu-mo-li, chu-mo-li
Meh-nat - qi - lib tin - may - di. Don yo-g'ib tin - mas ish -
dan Chu - mo - li, chu - mo - li, Mux - toj bo'l - may - di qish -
da Chu - mo - li, chu - mo - li. Hur - mat - la - shar bir - bi - rin,
Ha - lol - lik no - ni shi - rin.

Dal segno al capo – ya’ni «senio belgisidan to oxirigacha» qayta ijro etish demakdir.

Da capo al Segno poi Coda – ya’ni «boshdan to senio belgisigacha qayta ijro etish, so‘ngra xotima (koda) ga o‘tilsin» demakdir.

6) ↗ - biron-bir taktni bir necha marta ketma-ket qaytarishda ishlatiladigan belgi.

40



7) Tremolo - ikki tovush yoki tovushlar yig'indisi tez, tekis va ko'p marta almashib takrorlanishiga deyiladi.

41

yozilishi ijro etilishi

8) Con oktava -muayyan tovushni ikki oktavada juftlab ijro etish. Nota ustiga 8 rakami yozilganda ko'rstilgan tovush yuqori oktavadagi tovush, nota tagiga 8

42

raqami yozilganda tovush pastki oktavadagi tovush bilan birga ijro etiladi.

yozilishi ijro etilishi

Nota boshi Shtil Bayroqchalar Qovurg'alar	<p>Notaning ovalli bo'lagi nota boshi deb aytildi. Uzunligi butun notadan qisqaroq notalar nota boshiga qo'shib yoziladigan shtilga ega bol'di. Uzunligi chorak notadan qisqaroq notalar ritmik kontekstga ko'ra bayroqchalar yoki qovurg'alarga egalik qiladi (qarang paragraf 1.10). Nota yozuvi bo'yicha qisqacha ko'rsatmalar). Sakkiztalik notalar bitta bayroqcha (yoki qovurg'acha), o'n oltitalik notalar ikkita bayroqcha (yoki ikkita qovurg'a) egadir va x.k. Nota boshining nota yo'lida o'rashgan joyi muayyan tovush notasini ko'rsatadi.</p> <div style="text-align: center; margin-top: 20px;"> <p>Stem → Notehead → Flag = Beam (2 eighth notes with flags) = (2 eighth notes beamed together)</p> </div>
--------------------------------------------------------------	-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Pauzalar	<p>Pauzalar xuddi notalarga o‘xshaydi, lekin sukunat davomliigini ko‘rsatadi. Breve nomli pauza butun pauzadan ikki barobar uzunroq, butun pauza yarimtali pauzadan ikki barobar uzunroq, va x.k. Eslab qoling, butun nota xuddi erdag'i chuqurlik (o‘ra)ga o‘xshaydi.</p> <p style="text-align: center;">breve whole half quarter eighth sixteenth thirty-second</p>
Ligalar	<p>Liga nota cho‘zimlarini birlashtiradi. Masalan, ikkita sakkiztalik nota birga qo‘shilib, bitta chorak notaga teng keladigan cho‘zimni yaratadi. Liga bir xil balandlikdagi notalarni bog‘laydi. Pauzalar esa hech qachon liga bilan bog‘lanmaydi.</p> <p style="text-align: center;"></p>
Ligalar	<p>Liga nota cho‘zimlarini birlashtiradi. Masalan, ikkita sakkiztalik nota birga qo‘shilib, bitta chorak notaga teng keladigan cho‘zimni yaratadi. Liga bir xil balandlikdagi notalarni bog‘laydi. Pauzalar esa hech qachon liga bilan bog‘lanmaydi.</p> <p style="text-align: center;"></p>
Ikki nuqtali notalar	<p>Ikkinchi uzaytiruvchi nuqta (agar bor bo‘lsa) birinchi nuqta cho‘zimining yarimini qo‘shib beradi. Ular Ikki nuqtali notalar deb atyiladi. Masalan, ikki nuqtali yarimtali nota bitta yarimtali nota (birinchi nuqta uchun) plus bitta nimchorak nota (chorak notaning yarimi, ikkinchi nuqta uchun) notalarga baravar. Ikki nuqtali notalar davomliligi, nuqtasiz notalar cho‘zimidan ko‘ra, 1,75 (1+0,5+0,25) vaqt davomiga teng bo‘ladi</p> <p style="text-align: center;"></p>

Mark Feezell. Music theory fundamentals. High-yield music theory, vol.1. 2011

Asosiy tushunchalar: nota yo‘zuvi, nota, nota yo‘li, kalit, tovushlarning asosiy cho‘zimlari, cho‘zimlarning asosiy bo‘linishi, pauza.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Nota yozushi elementlarini ta’riflab bering.
2. Har xil cho‘zimlardagi nota va pauzalarni yozing.
3. Cho‘zim uzaytiruvchi belgilarni qo‘llab nota va pauzalarni yozing.
4. Musiqiy adabiyotda nota yozuvini qisqartirish belgilarni toping.

Nuqtasi bor chorak nota uzunligi liga bilan bog‘langan ikkita sakkiztalik nota uzunligiga teng keladi. Keltirilgan ta’rif to‘g‘rimi?

To‘g‘ri

Noto‘g‘ri

5.

Oltita nimchorak nota qaysi bitta cho‘zimga teng keladi?

Nuqtali yarimtalik notaga

Nuqtali butun notaga

Chorak notaga

Brevis notaga

Nota yozuvida notalarning aniq balandligini ko‘rstuvchi maxsus belgi nima deyiladi?

kalit

diapazon

o‘lchov

alteratsiya belgilari

“Do” nomli kalitlar nima deb ataladi?

alt va tenor kalitlari

bas kaliti

bas va skripka kalitlari

skripka kaliti

Tovush cho‘zimining vaqt bilan chegaralanmaganligi qaysi belgi bilan ko‘rsatiladi?

fermata

liga

repriza

akkolada

